


X. KICHIK TADBIRKORLIK

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ularni erkin faoliyat yuritishi uchun qulay sharoit va muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar davomida 2022- yil 1-iyul holatiga ro‘yxatga olingan jami kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining soni 31 914 tani tashkil qildi. (2022- yil 1-iyulga nisbatan 106,1 % ga ko‘pdir).

Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining 2022- yil 1-iyul holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi




Eng ko‘p kichik biznes subyektlari savdo tarmog‘ida (jami tashkil etilgan subyektlarning 35,7 %), sanoat sohasida (24,6 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida (9,6 %) va qurilishda (7,8 %) tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

	2021- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar-iyun
Viloyat bo'yicha jami	3 411	2 890
Namangan shahar	849	912
Mingbuloq	177	83
Kosonsoy	201	163
Namangan	205	153
Norin	219	198
Pop	243	133
To'raqo'rg'on	271	173
Uychi	237	182
Uchqo'rg'on	238	254
Chortoq	254	221
Chust	338	235
Yangiqo'rg'on	179	183

2022- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Namangan shahrida – 912 ta, Uchqo'rg'on tumanida – 254 ta, Chust tumani – 235 ta, Chortoq tumanida – 221 ta, Norin tumanida – 198 ta, Yangiqo'rg'on tumani – 183 ta, Uychi tumanida – 182 ta. To'raqo'rg'on, Kosonsoy, Namangan va Pop tumanlarida bu ko'rsatkich o'rta darajani tashkil etgan. Eng past ko'rsatkich Mingbuloq tumanida 83 tani tashkil etdi.

2022- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, %da




2022- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulushi Namangan shahrida – 31,6 %, Uchqurg'on tumanida – 8,8 %, Chust tumanida – 8,1 %, Chortoq tumanida – 7,6 %, Norin tumanida – 6,9 %, Yangiqo'rg'on tumanida – 6,3 % va Uychi tumanida – 6,3 %ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-iyun oylarida yalpi hududiy mahsulotning 70,0 % (2021- yil yanvar-iyul oylarida 71,6 %) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

Kichik biznes subyektlari tomonidan 113,2 mln. AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 41,7 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, 239,8 mln. AQSH dollari (umumiy import hajmining 71,2 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi ulushi

(yanvar-iyun oylari holatiga, %da)



Kichik tadbirkorlik subyektlari (ish, xizmat) hajmi

(2022- yil yanvar-iyun)

	Kichik tadbirkorlik subyektlari (ish, xizmat) hajmi, mlrd. so'm	Jami hajmga nisbatan ulushi, % da
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	9 273,7	97,0
Sanoat	3 479,5	44,9
Qurilish	2 921,5	92,6
Chakana savdo	7404,6	91,0
Yuk tashish, mln. tonna	12,9	92,3
Yo'lovchi tashish, mln. kishi	304,6	89,4

**2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning
hududlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,
(%da)**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiyalar
Viloyat bo'yicha jami	44,9	92,6	66,7	64,4
Namangan shahar	53,2	91,1	47,0	55,9
Mingbuloq	93,3	100,0	83,7	47,7
Kosonsoy	39,7	100,0	81,8	79,8
Namangan tuman	50,9	97,6	85,3	68,2
Norin	40,0	100,0	83,4	83,6
Pop	59,0	54,9	74,8	81,1
To'raqo'rg'on	10,3	100,0	77,0	69,8
Uychi	71,8	94,9	84,0	84,7
Uchqo'rg'on	16,6	100,0	80,3	68,7
Chortoq	100,0	100,0	80,4	66,7
Chust	47,3	98,5	74,5	44,5
Yangiqo'rg'on	100,0	99,3	84,4	97,2

Hududlar bo'yicha **sanoat** sohasining yuqori ulushini Chortoq, va Yangiqo'rg'on tumanlari (100,0 %) hamda Mingbuloq (93,3 %) tumanlari tashkil etdi.

Qurilishda – Kosonsoy, Mingbuloq, Norin, To'raqo'rg'on, Uchqo'rg'on, Chortoq tumani 100,0 %, Yangiqo'rg'on tumanida 99,3 % tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida – Namangan t (85,3 %), Yangiqo'rg'on (84,4 %), Mingbuloq (83,7 %), Norin (83,4 %), Kosonsoy (81,8 %) tumanlari tashkil etdi.

Investitsiyada – Yangiqo'rg'on (97,2 %), Norin (83,6 %), Uychi (84,7 %), Pop (81,1 %) , Kosonsoy (79,8 %) tumanlarida yuqori ulushlarni tashkil etdi.